

TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELI VA UNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Nematjonov Farruh Farxodbek o'g'li

Bank moliya akademiyasi magistranti

Anotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklarining kredit portfeli, uni shakllantirish va samarali boshqarish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Kredit portfeli bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning sifati bankning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham kredit risklarini minimallashtirish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish va xalqaro tajribani amaliyotga joriy etish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ishda tijorat banklarining kredit portfelini boshqarishda mavjud muammolar, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Abstract

In this research work, the credit portfolio of commercial banks, its formation, and effective management issues are thoroughly analyzed. The credit portfolio is one of the key indicators of a bank's activity, and its quality directly affects the financial stability and competitiveness of the bank. Therefore, minimizing credit risks, improving lending mechanisms, applying modern analytical methods, and introducing international best practices into practice are of particular importance. The study examines the existing problems in managing the credit portfolio of commercial banks, the reasons behind them, and the ways to eliminate them.

Kalit so'zlar:

Tijorat banklari, kredit portfeli, kredit risklari, moliyaviy barqarorlik, kredit siyosati, risklarni boshqarish, diversifikatsiya, bank islohotlari, samaradorlik.

Keywords:

Commercial banks, credit portfolio, credit risks, financial stability, credit policy, risk management, diversification, banking reforms, efficiency.

Kirish

Zamonaviy bozor munosabatlari shakllanib borayotgan sharoitda bank-moliya tizimining ishonchli faoliyati iqtisodiy barqarorlikning asosiy ustunlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan kreditlash operatsiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirish, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu boisdan, bank kredit portfelining to'g'ri shakllantirilishi va uni samarali boshqarish masalalari bugungi kun moliyaviy siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli srtetegik rejali islohotlar, ayniqsa bank tizimi ishtirokida olib borilayotgan moliyaviy barqarorlikka qaratilgan hamda ununig chora-tadbirlar natijasida tijorat banklari faoliyatining sifati va samaradorligiga nisbatan talablar keskin oshmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kredit portfelining strukturasini puxta tahlil qilish, uning tarkibiy qismlarini risk darajasi, to'lovga layoqatlilik va daromadlilik nuqtayi nazaridan o'rganish, shuningdek, portfelni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish ayni paytda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bankning barqarorligini ta'minlashda asosiy rol kredit portfelining sifatli boshqaruvida namoyon bo'ladi. Bu jarayon kredit portfelini optimal darajaga olib chiqishni, ya'ni xavf va daromad o'rtasida eng muvofiq muvozanatni yaratishni nazarda tutadi. Optimal kredit portfeli deganda, tavakkalchilik va rentabellik ko'rsatkichlari o'rtasida ideal nisbatga erishilgan kreditlar majmui tushuniladi. Kredit portfelining asosiy xususiyati tavakkalchilik darajasi va daromadlilik bilan belgilanadi; ular o'zaro bog'liq bo'lib, daromad oshgani sari xavf ham ortadi. Umumiy jihatdan, kreditlash faoliyatining asosiy maqsadi sifatida qaraladigan optimal kredit portfeli, tijorat banklarining kredit siyosatini shakllantirishda markaziy ahamiyatga ega. Kredit portfelini samarali boshqarish, uning rentabelligini maksimal darajaga olib chiqish, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'lida muhim qadam hisoblanadi. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining kredit portfeli boshqaruvidagi asosiy dinamik ko'rsatkichlari taqdim etilgan. Turli mamlakatlarda tijorat banklari kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni kamaytirish, daromadlilikni oshirish, bankning likvidlik darajasini saqlash va muammoli

kreditlar ulushini qisqartirish masalalari dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Shu bilan

Kredit portfeli dinamikasi tahlili ko'rsatkichlari⁶⁰	
1.	Yalpi kredit portfeli
2.	Sof kredit portfeli
3.	Tavakkalchilik bilan ajratilgan kredit portfeli
4.	Risk guruhlar bo'yicha tuzilgan kredit portfeli
5.	Rentabellik bo'yicha tuzilgan kredit portfeli
6.	Diversifikatsiya qilingan kredit portfeli
7.	Zararlarni qoplash uchun yaratilgan zaxira miqdori

birga, kredit portfelini boshqarishda ilg'or va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish muhim vazifa sifatida qolmoqda. Banklar o'z kredit faoliyatini nafaqat hajm jihatidan kengaytirishga, balki kredit sifatini yaxshilashga ham katta e'tibor qaratmoqda. (Jo'rayev E.B., 2025)

1 jadval Kredit portfel dinamikasi tahlili ko'rsatkichlari

Manba: Jo'rayev E. milmiy maqolasidan olingan.

Hozirgi vaqtda tijorat banklari kredit portfeli tuzish hamda uni samarali boshqarish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi iqtisodiy sharoitlar bank faoliyatidagi muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan ilg'or kredit portfeli boshqaruv tizimini yaratishni talab qilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli sohalarga, ayniqsa moliyaviy sektor kreditlashida banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlarga bog'liq xavf-xatarlarni kamaytirish va nazorat qilish borasida innovatsion boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi, xodimlarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish, garov mulkini baholash, uning saqlanishini nazorat qilish va bozor qiymatining o'zgarishini aniq baholay oladigan malakali mutaxassislarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Jahon moliya-iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan beqarorlik va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini hisobga olgan holda, bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qolmoqda. Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash doimiy e'tibor markazida bo'lib, bu sohada sezilarli ijobiy natijalar mavjud. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish zarurati ortib bormoqda, chunki

banklar iqtisodiyotning hayotiy qon tomirlari bo'lib, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ularning samarali faoliyatiga bevosita bog'liq.

Bank kredit faoliyatining samaradorligini aniqlashda bir nechta muhim ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan eng asosiylaridan biri – bu bank kredit portfelining umumiy holatini tahlil qilishdir. Kredit portfelining sifatini aniqlashda faqatgina muayyan bir davrga doir ko'rsatkichlarni emas, balki ko'p yillik davr mobaynidagi o'zgarishlarni ham chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kredit portfeli tarkibi va uning asosiy mezonlari bo'yicha dinamik tahlil amalga oshiriladi.

Kredit ajratish va unga aloqador operatsiyalar ko'pincha yuqori darajadagi tavakkalchilik bilan tavsiflanadi. Shu sababli, ushbu jarayonlar nafaqat foyda keltirishi, balki bankning likvidlik talablariga ham javob berishi zarur. Kredit portfelining sifati aynan rentabellik, xavfsizlik va likvidlik darajasi orqali baholanadi. Ushbu mezonlar bank portfelining kuchli va zaif tomonlarini aniq ko'rsatadi.

Shuningdek, sifatli kredit portfeli deganda – balansdagi likvidlikni saqlagan holda daromad keltirish imkoniyatiga ega bo'lgan optimal tuzilma tushuniladi. Bunday portfelni shakllantirish uchun esa bank o'zining kredit siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, tegishli bozor segmentlarini aniqlab, resurslarni oqilona taqsimlashi lozim bo'ladi.

Aktivlari tarkibida va boshqa to'lov hujjatlari tijorat bankining, kassadagi naqd pul O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvaraqlar, shuningdek, Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy zaxira hisobvaraqlari mavjud. Bundan tashqari, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari hamda asosiy hisobvaraqlardagi mablag'lar, savdo operatsiyalariga oid va sotib olingan debitorlik qarzlari qimmatli qog'ozlar (faktoring) ham ushbu tarkibga kiradi. Qisqa va uzoq muddatli kreditlar, shuningdek lizing faoliyati bilan bog'liq potentsial zararlarni qoplash uchun ajratilgan zaxiralar ham hisobga olinadi. Bundan tashqari, investitsiyalar (zaxiralar hisobga olingan holda), sud jarayonlaridagi kreditlar, hali tugallanmagan qurilish obyektlari va bank mulkiga kiruvchi bino va inshootlar, ularni ijaraga berish hamda yaxshilash huquqi ham mavjud. To'lov kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun zarur bo'lgan uskuna, asosiy vositalarning operatsion ijarasi, transport vositalari, mebel, texnika va boshqa jihozlar, shuningdek nomoddiy aktivlar ham bank aktivlari tarkibiga kiradi. Bundan tashqari, ombordagi asosiy

vositalar, valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari, hukumat hisobvaraqlari va boshqa turdagi aktivlar, jumladan pul o'tkazmalari hisobvaraqlari ham mavjud. Asakabank — O'zbekiston Respublikasidagi yirik davlat aksiyadorlik tijorat banklaridan biri bo'lib, mamlakat bank tizimida alohida strategik ahamiyatga ega. Bank 1995-yil 7-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etilgan. Dastlab bankning asosiy vazifasi mamlakatda yangi shakllanayotgan avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish va ushbu sohani moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat edi. 1996-yil boshida bank o'zining birinchi moliyaviy operatsiyalarini amalga oshira boshladi va shundan buyon u universal tijorat bankiga aylangan holda o'z faoliyat doirasini sezilarli darajada kengaytirdi.

Asakabankning bosh ofisi Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 67-uy manzilida joylashgan. Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan 53-raqamli litsenziya asosida faoliyat yuritadi. Bankning asosiy aksiyadorlari qatorida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, davlat investitsiya jamg'armalari, avtomobilsozlik sanoati korxonalari va boshqa davlat tashkilotlari mavjud. Bu esa bank faoliyatining barqarorligi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.

Asakabank bugungi kunda mamlakat bo'yicha keng hududiy tarmoqqa ega bo'lib, u yuzlab filiallar, mini-banklar, maxsus xizmat ko'rsatish markazlari, bankomat va terminallarni o'z ichiga oladi. Bank jismoniy va yuridik shaxslarga kompleks moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi: kreditlar, depozitlar, hisob-kitob-kassa operatsiyalari, valyuta ayirboshlash xizmatlari, xalqaro to'lovlar, plastik kartalar chiqarish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, lizing, garov va kafolat xizmatlari shular jumlasidandir.

Bank faoliyati ko'p yillik tajriba, kuchli texnologik infratuzilma, risklarni boshqarish tizimi, malakali xodimlar va zamonaviy menejment tamoyillari asosida olib boriladi. Asakabankning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyoti, xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, kichik va o'rta biznes tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholining bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishdan iborat.


So'nggi yillarda bankning moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda. Masalan, 2024-yil birinchi choragida bank aktivlari 2023-yil shu davriga nisbatan 9,6 foizga o'sdi. Kredit portfeli esa chorak yakunida 38,4 trillion so'mga yetdi. Shu bilan birga,

bankning sof foydasi 65,7 milliard so‘mni tashkil etdi, bu esa 2023-yilning shu davriga nisbatan 27–28 foiz kam. Nofoyda kreditlar (NPL) ulushi 4,6 foizga teng bo‘ldi, bu 2023-yil ko‘rsatkichidan (4,4%) biroz yuqoridir. Bankning o‘z kapitali ham yildan-yilga oshib bormoqda, bu uning moliyaviy barqarorligi va o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini oshirmoqda.

Asakabank xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholangan. Xususan, “Fitch Ratings” agentligi bankning uzoq muddatli xorijiy valyutadagi kredit reytingini “BB-” darajasida, istiqbolini esa “barqaror” (stable) deb belgilagan. Bu reyting bankning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini, moliyaviy barqarorligini va tashqi qarzlarni so‘ndirish imkoniyatini tasdiqlaydi. Bunday reytinglar bankka xalqaro moliya bozorlarida ishonchli hamkor sifatida qaralishiga xizmat qiladi.

2 rasm Kredit portfelini boshqarishda portfelni baholash tizimi elementlari

Kredit portfelining boshqaruvida uning sifat ko‘rsatkichlariga alohida e‘tibor qaratish zarurdir. Noto‘g‘ri boshqarilgan kreditlar, shartlarning buzilishi va ishonchsiz mijozlarga berilgan kreditlar banklarning moliyaviy barqarorligini zaiflashtirishi mumkin. To‘lanmaydigan kreditlar bankning haqiqiy kapitalini shakllantirish imkoniyatini cheklab qo‘yadi va iqtisodiy rivojlanishga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan resurslarning bekor



ketishiga olib keladi. Shu sababli, kredit portfelining sifatini oshirish va samaradorligini baholash uchun aktivlar hamda majburiyatlarning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Bu jarayon foiz daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farqni oshirish hamda bank rentabelligini yaxshilashga xizmat qiladi. Har bir moliyaviy manbaning o‘ziga xos xususiyatlari va risklari mavjud bo‘lib, ularni boshqarish har bir

manbani alohida ko'rib chiqishga asoslangan moliyaviy resurslarni samarali aylantirish strategiyasidan iboratdir.

Kredit portfelining sifatini aniqlash uchun ikki xil yondashuv — miqdoriy va sifat tahlili qo'llaniladi. Miqdoriy tahlil kredit portfelining tuzilishi va dinamikasini turli iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qiladi. Bu jarayonda quyidagilar o'rganiladi: kreditlarning turlari va hajmi, qarz oluvchilarning guruhlariga ajratilishi, kredit shartlari va muddatlari, foiz stavkalari, shuningdek, kreditlarning turli sanoat tarmoqlariga taqsimlanishi.

Ushbu tahlil kreditlarning eng istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga, ularning rivojlanish tendensiyalarini ko'rib chiqishga, shuningdek, to'lov qobiliyati va rentabellik darajasini baholashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy ankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/-34949332>.
2. Omonov A.A., Qoraliyev (2019) T.M. Pul va banklar. Darslik. -T.: "IQTISOD-MOLIYA" 461 b.
3. Abdullayeva Sh.Z. Kredit va kreditlash. (2017) Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya,
4. Abdullayeva Sh.Z. (2018) Pulva banklar. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-Moliya", - 756 b. <https://www.ipotekabank.uz/uz/about/reports/>.
5. [AKB Xamkorbank | LinkedIn](#)
6. ATB "Hamkorbank" 2012–2016-yillardagi moliyaviy hisobotlari
7. Rasulov T.S. va Ziyodilloyev X.R., "Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish yo'nalishlari", Monografiya, Toshkent-2024
8. Malikova D.M. Xamroyev Y (2024) Tijorat banklari kredit portfeli va uni samarali boshqarish.
9. Yodgorov M. Qurbonov R (2019) Bank auditi darslik.